

Ikki tomonlama muloqotdan global kun tartibigacha: AQSh-O'zbekiston aloqalarining ahamiyati



Donald Trampning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bilan telefon orqali muloqoti Amerika - O'zbekiston munosabatlarining barqaror ijobiy dinamikasini tasdiqlovchi muhim siyosiy signaldir. Oliy darajadagi to'g'ridan-to'g'ri aloqalar AQSHning O'zbekistonga Markaziy Osiyodagi yetakchi hamkor sifatida e'tibori ortib borayotgani hamda Toshkentning mintaqaviy va kengroq xalqaro kun tartibidagi rolini tan olinayotganini aks ettiradi.

So'nggi yillarda O'zbekiston va Qo'shma Shtatlar o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik vaqti-vaqti bilan aloqalardan tizimli sheriklikka aylandi. Mamlakatda Amerika kapitali va texnologiyalari ishtirokidagi o'nlab loyihalar, asosan sanoat, qishloq xo'jaligi, transport va raqamli iqtisodiyot sohalarida amalga oshirilmoqda. Qo'shma Shtatlar ilg'or texnologiyalar va boshqaruv amaliyotlarining yetakchi manbalaridan biri bo'lib, bu O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va uning raqobatbardoshligini oshirish uchun ayniqsa muhimdir.

Siyosiy muloqot ham mazmunli tus oldi. Vashington O'zbekistondagi iqtisodiy islohotlar, investitsiya muhitini yaxshilash va ochiqlik siyosatini izchil qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Toshkentning Markaziy Osiyoda barqarorlikni ta'minlash, mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishdagi konstruktiv rolga yuksak baho berilmoqda.

O'zbekiston Prezidentining Mayami shahrida bo'lib o'tadigan "Katta yigirmatalik" sammitiga tarixda birinchi marta mehmon sifatida taklif etilgani alohida ahamiyatga ega. Bu shunchaki diplomatik ishora emas, balki mamlakatning xalqaro maqomi sifat jihatidan o'zgargani, Prezident rahbarligida amalga oshirilayotgan islohotlarga ishonch ortib borayotganidan dalolatdir.

"Yigirmatalik" mamlakatlari jahon yalpi ichki mahsulotining qariyb 85 foizini, jahon savdosining qariyb 75 foizini va sayyoramiz aholisining deyarli uchdan ikki qismini tashkil etadi. Aynan shu formatda jahon

iqtisodiyoti, moliyaviy barqarorlik, energetika va oziq-ovqat xavfsizligi, ta'minot zanjirlari va barqaror rivojlanish masalalari bo'yicha o'zaro muvofiqlashgan yondashuvlar shakllantirilmoqda.

O'zbekistonning "Katta yigirmatalik"dagi ishtiroki investitsiyalarni jalb qilish, savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, mamlakatning global ishlab chiqarish va logistika zanjirlariga integratsiyalashuvi uchun qo'shimcha imkoniyatlar ochadi. Kengroq ma'noda, bu jahon va mintaqaviy iqtisodiyot kelajagiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan qarorlarni muhokama qilishda O'zbekiston ovozini kuchaytiradi.

Shu ma'noda, Donald Trampning Prezident Shavkat Mirziyoyev bilan telefon orqali suhbat va G20 sammitiga taklifi O'zbekiston-Amerika strategik hamkorligini yanada chuqurlashtirishga — iqtisodiy aloqalar va investitsiyalarni kengaytirishdan tortib, asosiy mintaqaviy va global masalalar bo'yicha pozitsiyalarni muvofiqlashtirishgacha tayyorlik belgisi sifatida baholash lozim.

Eldor Aripov,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti direktori